



# O'zMU XABARLARI

## БЕСТНИК НУУЗ

## ACTA NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL  
1997 YILDAN  
CHIQA  
BOSHLAGAN

2023  
1/3/1

Ijtimoiy-  
gumanitar  
fanlar turkumi

Bosh muharrir:

**MADJIDOV I.U.** – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

**ERGASHOV Y.S.** – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

**Sagdullayev A.S.** – t.f.d., akademik.

**Ashirov A.A.** – t.f.d., prof.

**Balliyeva R.** – t.f.d., prof.

**Malikov A.M.** – t.f.d., prof.

**Yusupova D.Y.** – t.f.d., prof.

**Murtazayeva R.H.** – t.f.d., prof.

**Mo'minov A.G.** – s.f.d., prof.

**Nishonova O.J.** – f.f.d., prof.

**Abdulayeva N.B.** – f.f.d., prof.

**Madayeva Sh.O.** – f.f.d., prof.

**Tuychiyev B.T.** – f.f.d., prof.

**Utamuradov A.** – f.f.n., prof.

**Muxammedova D.G.** – psix.f.d., prof.

**Boltaboyev H.** – fil.f.d., prof.

**Rahmonov N.A.** – fil.f.d., prof.

**Shirinova R.X.** – fil.f.d., prof.

**Siddiqova I.A.** – fil.f.d., prof.

**Sa'dullayeva N.A.** – fil.f.d., dots.

**Arustamyan Y.Y.** – fil.f.d., dots.

**Pardayev Z.A.** – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

ТОШКЕНТ – 2023

## MUNDARIJA

### Tarix

<b>Akramov D.</b> Sovet boshqaruvi davrida o'qituvchilar tayyorlash tizimi.....	4
<b>G'ulomov I.</b> O'zbekiston SSRda demografik siyosat (1937-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri misolida).....	8
<b>Latipov J.</b> Xitoydag'i Lyao sulolasining "Shimoliy-janubiy sulolalar" muvozanati shakllanishidagi o'mni .....	11
<b>Nazarova D.</b> Uy muzeylarining shakllanishi va rivoji .....	15
<b>Parmonov Sh.</b> Shahrisabz bekligi Amir Haydar va Amir Nasrullo davrida .....	18
<b>Saviev J.</b> Qosim Shayx Azizon yodgorlik majmuasi qurilishi tarixiga ayrim chizgilar .....	23
<b>Xolikulova X.</b> Imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatga moslashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlarning tutgan o'mni .....	26
<b>Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik</b>	
<b>Abdisoatoev E.</b> Xorijiy mamlakatlar hududlarida amalga oshirilgan kiberhujumlar tendentsiyasi xususida .....	28
<b>Abdullaeva Sh., Ergasheva M.</b> B.B. Blum taksonomiyasida asosida pisa tabiiy-ilmiy savodxonlik darajalarini pedagogik jarayonga tafbiq etish .....	31
<b>Alimatova N.</b> Ta'lif sifati va raqobatbardoshlik .....	34
<b>Arapbayeva D.</b> Oiladagi inqirozlar va ularning namoyon bo'lishi .....	38
<b>Axmedov X.</b> Boshqaruvinin kadrlarini tayyorlash – davr talabi .....	41
<b>Axmedova M.</b> Kredit modul tizimida OTMdada tilshunoslik fanlari uchun o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik, lingvodidaktik zaruriyatlar .....	45
<b>Axmedova U.</b> Ta'lif jarayonida talabalarning kreativlik qobiliyatini loyiha texnologiyasi orqali rivojlantirish samaradorligi .....	48
<b>G'ofirov M.</b> Bo'lajak muhandislarni umumkasibiy tayyorgarligini modulli o'qitish asosida rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari, tamoyillari .....	51
<b>Jo'raqulov F.</b> Mahalliy davlat hokimiyati tizimini isloh etishning demokratik xususiyatlari va milliy jihatlari .....	54
<b>Zarifbaeva Sh.</b> Global axborot-psixologik xavfsizlik texnologiyalarining nazariy-metodologik asoslari .....	59
<b>Ikramova D., Avazmetova I.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarning o'sishi va rivojlanish davrlari .....	63
<b>Imomov M.</b> Vliyanie faktorov okruzhayushchey sredy na kachestvo zhizni i zdorovye studenticheskoye molodezhi .....	66
<b>Kambarov A., Jabbarov Z.</b> Globallashuv sharoitlarda biologik (bakteriologik) qurollarning shikastlovchi ta'siri va oqibatlari .....	69
<b>Olimova F.</b> Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan ta'lif orqali ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimi .....	72
<b>Karimov B.</b> Integrativ uzbviylik - bo'lajak mutaxassislarni normativ-metrologik vakolatini shakllantirish omili .....	75
<b>Karimov F.</b> O'rta yoshdag'i 45-60 yoshli erkaklar uchun jismoniy tayyorgarlikni hisobga olgan holda sog'lomlashtiruvechi mashqlar jamlanmasini ishlab chiqish .....	77
<b>Karimova K.</b> Boshlang'ich sinf matematika darslarida palindrom sonlar bilan ishslash .....	80
<b>Kenjayev Z.</b> Turmush tarzi: yoshlarning siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish istiqbollarri .....	83
<b>Qarshiboeva G.</b> Suitsidentlar shaxsini o'rganish usullari .....	86
<b>Qurbanova Z.</b> Globallashuv sharoitida talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi tizimini takomillashtirishda Mahmud az-Zamaxshariy ta'lidotidan foydalanish ("Atvoq uz-zahab fi-l-mavoi'z va-l-xutab" asari misolida) .....	89
<b>Mavlonova N.</b> Fizikani o'qitishda kompetentli yondashuv asosida integratsiyasini amalga oshirish .....	92
<b>Mo'minov A.</b> Malakali gandbolchilarda to'p otish aniqligi va uni ta'minlovchi asosiy koordinatsion qobiliyatlarini shakllantirish tajribasi .....	95
<b>Musoyeva A.</b> The significance of research competence for pre-service and in-service teacher educators .....	99
<b>Muxiddinova N.</b> Modul-kredit tizimi sharoitida bo'lajak pedagoglarni kasbiy kompetentligini shakllantirishning ahamiyati .....	102
<b>Navruzov R., Jabbarov Z., Iminjanov M.</b> Geografik axborot tizimlarini qurolli kuchlarda qo'llash istiqbollarri .....	105
<b>Negova F.</b> ESP is a learner-centered approach to teaching english as a foreign or second language .....	109
<b>Nematova D.</b> Turkiyada aholini kambag'allik darajasiga tushib qolmasligi uchun qilinadigan chora tadbirlar .....	112
<b>Nosirova D.</b> Talabalarning kasbiy kompetentligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	115
<b>Nurullayeva Sh.</b> Muammoli ta'lif texnologiyalaridan boshlang'ich ta'lif jarayonida foydalanish imkoniyatlari .....	119
<b>Olimjonova S.</b> The ways of developing speaking skills for elementary level .....	122
<b>Otaqulov O., Nasriddinov O., Isomiddinova O.</b> O'quv jarayonida Maple dasturidan foydalanib, Bernulli tenglamasini yechish .....	125
<b>Ravshanov L.</b> Komandirlarda ijobjiy imij shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari .....	128
<b>Rajapova E.</b> Yangi O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning milliy-hududiy xususiyatlari .....	131
<b>Raupova M.</b> Bo'lajak o'qituvchilarini huquqiy ijtimoiylashtirishning pedagogik asoslari .....	134
<b>Raximova G.</b> Boshlang'ich ta'linda matematik va tabiiy fanlar ta'limi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot(TIMSS) .....	137
<b>Raxmatillaev M., Roziboev M.</b> Sport o'yinlari fakulteti umumiy bosqich talabalarning gandbol sport turi bo'yicha jismoniy texnik-taktik tayyorgarlik darajasini tekshirish .....	140
<b>Ruzmetova M.</b> Biznes ingliz tilini o'qitishda kommunikativ-kognitiv hamda kommunikativ-kumulyativ metodlar tadbiqi .....	143
<b>Sadikova U.</b> Amaliyotchi psixoglarning kasbiy kompetensiyasining yoritilishi .....	146
<b>Sayfilloyev A., Sayfilloyeva Sh.</b> Improving the methodology of primary school students' mastery activities .....	149
<b>Salomova G.</b> Bo'g'imi qisqartmalar ingliz va o'zbek tillari misolida .....	153
<b>Culstonova C.</b> Особенности коммуникативного подхода к работе с текстом на уроках русского языка как иностранного в узбекских группах .....	156
<b>Tagaymuratova G.</b> Bioetika va deontologiya masalalari kecha va bugun .....	160

<b>To'rayev R.</b> Web dasturlashni o'rgatuvchi elektron muhitni yaratish bosqichlari.....	164
<b>To'rahonova B.</b> Bo'lajak pedagog-psihologlarni kasbiy tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillari .....	167
<b>Turgunova N.</b> Yoshlarga oid davlat siyosatining ilmiy-nazariy asoslari.....	170
<b>Tursunov A.</b> Harakatlari o'yinlarni kelib chiqishi tarixi, turkumlari va pedagogik ahamiyati .....	173
<b>Umarjonov S.</b> "Ishoralar va tanbehlar" asariga Fahreddin Roziyning sharhi.....	176
<b>O'rinova D.</b> Chet tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va o'yinli platformalardan unumli foydalanish .....	180
<b>Usmonova M., Abdubannonova N.</b> O'quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirishning didaktik asoslari .....	184
<b>Xakimov A.</b> Covid-19 infeksiyasi oqibatlari va gerontologik muammolar.....	187
<b>Xalikova L.</b> Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida talabalarning dunyoqarashini rivojlantirish usullari .....	190
<b>Xasanova G.</b> Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini shakllantirisning metodologik asoslari..	193
<b>Xasanova M.</b> Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kompozitsiya qonuniyatlarini o'qitish mazmunining asosiy komponentlari .....	196
<b>Kurramov A.</b> Ta'limda raqamli texnologiyalar .....	199
<b>Hamidova D.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarda musiqa va o'yin faoliyati orqali insonparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash yo'llari .....	203
<b>Shakarboeva Sh.</b> Bo'lg'usi o'qituvchi faoliyatiga xos bo'lg'an kasbiy psixologik xususiyatlari.....	206
<b>Shivoqova M.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarda tabiat va ilm-fan markazlari orqali kongnitiv qiziqishlarni rivojlantirish .....	209
<b>Shodiyeva G.</b> Talabalarning tabiiy geografiyaga oid kompetentligini rivojlantirish modeli .....	212
<b>Shomirzayev Sh.</b> Zamonaviy sharoitda talaba-kursantlarning pedagogik jarayoniga ijtimoiy moslashuv .....	216
<b>Shonazarov J.</b> Davlat xizmatchisining axloqiy qiyofasi .....	219
<b>Shohobutdinova D.</b> Komizmning falsafiy talqini.....	222
<b>Эшнаев Д.</b> Секуляризация – как залог баланса светскости и религиозности.....	224
<b>Yusupova Sh.</b> Chet tilini onlayn kurslardan foydalanib, o'qitishda Swot-tahsil metodini loyihalashtirish.....	228
<b>Filologiya</b>	
<b>Abdurahmonov X.</b> O'zbek tilshunosligi tarixida mavhumi otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati .....	231
<b>Amirova Sh.</b> Maqol – nutq birligi sifatida .....	234
<b>Artikov A.</b> The problem of economy of linguistic means in the uzbek language .....	237
<b>Atabekova F.</b> The concept of realia in linguistics and translation theory .....	240
<b>Ashurov M.</b> Универсальная концептуальная семантика «компаратив» и ее вербализаторы в языках разных систем .....	243
<b>Begmatova R.</b> Nemis va o'zbek madaniyatlararo muloqotda kooperatsiyaga erishishda ko'z aloqasi taktikasidan foydalanish zarurati.....	246
<b>Boborajabov E.</b> O'zbekistonda sport siyosati va bu borada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar .....	249
<b>Бурибекова ІІІ.</b> Особенности взглядов европейских ученых на развитие жанра журналистского расследования	252
<b>Ganiyeva Sh.</b> Leksik va sintaktik frazeologizmlar .....	255
<b>Ismatullayeva I.</b> Kontsept tushunchasining hozirgi zamon lingvistikasidagi o'mi .....	258
<b>Калниязов Е.</b> Лингвокультурологические особенности гостеприимства в английской и русской паремиологической картине мира .....	261
<b>Juraeva N., Qodirberanova Sh.</b> O'zbek tilidagi otli birikmalarning formal modellarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari .....	265
<b>Mahmudova Z.</b> The process of borrowing and its influence on the development of the language .....	269
<b>Murodova D.</b> Kuper hindulari kupershunoslar talqinida .....	272
<b>Narxodjayeva X.</b> Rasmiy muloqot matnida intensiyaning ifodalanish usullari .....	277
<b>Rustamova X.</b> Meri Oliver ijodida ruhiy va jismoniy iztirob in'ikosi .....	281
<b>Salomova G.</b> Bo'g'imli qisqartmalar ingliz va o'zbek tillari misolida .....	284
<b>Safarova F.</b> O'zbek tilida ba'zi gastronomik nomlarning tarixiy va semantik qatlami .....	287
<b>Tulyaganova N., Yusupova Sh.</b> Types of literary and non-literary vocabulary of the english and uzbek languages .....	290
<b>Hayotova D.</b> Konsept va tushuncha munosabati .....	293
<b>Xasanova F.</b> Tilshunoslikda sotsiolingvistik omillar o'rganilishining ilmiy-nazariy asoslari .....	295
<b>Xonkeldiyeva G.</b> O'zbek tilshunosligida kelishik kategoriyasining o'rganilishi masalasi .....	298
<b>Xudoyev S.</b> Topishmoq matnining sintaktik xususiyatlari (o'zbek-nemis topishmoqlari misolida) .....	301
<b>Xusainova Z.</b> Bpe algoritmi asosida tokenizatsiya jarayonini amalga oshirish .....	304
<b>Choriyeva M.</b> Leksik-semantik maydonda "g'urur" modelining ifodalanishi .....	307
<b>Ergashev A.</b> Saidbek Hasanovning hayot yo'li va faoliyati .....	310
<b>Yakhshiboyeva N.</b> The essence of tourist terminology in french .....	314



**Sharofiddin PARMONOV,**

O'zMU magistranti

E-mail:parmonovsharofiddin96@gmail.com

t.f.n.dots. N.Buranova taqrizi asosida

### SHAKHRISABZ BEKLICK DURING THE PERIOD OF AMIR HAYDAR AND AMIR NASRULLO.

#### Annotation

In this article is illuminated the period from the beginning of the XIX to the 60s of the XIX century that is, the emirs of Bukhara the failure of Shahrisabz beklik to the emirate of Bukhara during the reign of Amir Haydar causes of wars in the middle, upheavals by Amir Haydar Shahrisabz solo book titles and ranks given to the principals and the ascendancy of Amir Nasrullah and the princes of Shahrisabz, results of the 30-year war between, Amir Nasrullah military campaigns military reforms Shahrisabz beklik's marriage to Kenagas Ayim, the course of political processes.

**Key words:** Emirate of Bukhara, Shahrisabz beggi, Kitob beggi, mangits, kenagases, barlos, political relaiions

### ШАХРИСАБЗ-БЕЙ ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЯ АМИРА ХАЙДАРА И АМИРА НАСРУЛЛЫ

#### Аннотация

В данной статье освещаются исторические события в период начала XIX века по 60-е годы, то есть эмиров Бухары: причины неподчинения бекства Шахрисабза Бухарскому эмирату в период правления Амира Хайдара, войны и восстания, титулы и должности, данный Шахрисабзкому, Яккабогскому и Китабскому бекствам со стороны Амира Хайдара; восшествие на престол Амира Насруллоха, итоги 30-летней войны с боями Шахрисабза, военные походы Амира Насруллы, военные реформы, подчинение Шахрисабского бекства, женитьба на Кенагасойим и другие политические процессы.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Шахрисабзкое бекство, Китаб бекство, мангыты, кенагасы, барлосы политические связи.

### SHAHRISABZ BEKLIGI AMIR HAYDAR VA AMIR NASRULLO DAVRIDA

#### Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr boshlaridan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr ya'ni Buxoro amirlari: Amir Haydar davrida Shahrisabz bekligining Buxoro amirligiga bo'yusunmasligi sabablari, o'rtadagi urushlar, qo'zg'alonlar, Amir Haydar tomonidan Shahrisabz Yakkabog' Kitob beklilari berilgan unvon va mansablar va Amir Nasrullohning taxtga chiqishi va Shahrisabz beklari o'rtasidagi 30 yillik urush natijalari, Amir Nasrullohning harbiy yurushlari harbiy islohotlari Shahrisabz bekliging bo'yo'ndirishi Kenagas oyimga uylanishi siyosiy jarayonlarni kechishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, Shahrisabz bekligi, Kitob bekligi, mang'itlar, kenagasarlar, barloslar siyosiy aloqalar

**Kirish.** Bugungi kunda yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish, inson manfaati va erkinliklarini ta'minlash maqsadida keng miqyosli islohotlar izhil davom ettirilmoida. "Milliy o'zligimiz anglash, Vatanimizning qadimiylari va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim" [1]. Tarix ilmi umuminsoniy qadriyatlardan ichida eng asosiyisidir. Vatanimiz tarixi va madaniyatida katta o'rinn tutuvchi Shayboniyxon hukmronligi davrini o'rganish, o'sha davr voqe'a-hodisalarini, davlat negizini tashkil etgan boshqaruva tizimini haqqoniy o'rganish bugungi tarix fanining dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

O'zbekistonning qadimiylari tarixiy-madaniy tumanlaridan biri Shahrisabzda XIX asrda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlari o'rganish tarix fanida nisbatan tadqiq qilinmagan masalalar sirasiga kiradi. Zero, Birinchi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Xech shubhasiz, Qashqadaryo vohasining naqdalar katta tarixiy va madaniy me'resga ega ekani haqida gapirishimiz albatta o'rinnlidir. Bugun bu haqiqatni nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun dunyo tan olmoqda». Ushbu davrda Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining iqtisodiy, siyosiy hayotida katta o'rinn tutgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolada XIX asrboshlaridan XIX asrning 60-yillarigacha bo'lgan davr


bag'ishlangan tadqiqotlarni uch guruhgaga bo'lib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhni Rossiya impyeriyasiga harbiylari, sayyoqlar, sharqshunoslar va boshqa soha vakillari tomonidan yozilgan estaliklar, XIX-XX asr boshlarida chop etilgan turli adabiyotlar tashkil qiladi. Ikkinci guruhga sovet hukmronligi davrida mavzuga oid chop etilgan adabiyotlar kiradi. Uchinchi guruh mustaqillik yillarda nashr etilgan adabiyotlar, amalgalga oshirilgan tadqiqotlardan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzu tarixshunosligiga oid keyingi davr tadqiqotlarida, xususan, A.X.Hamroyev, O.D.Chexovich, M.A.Abduraimov, A.Madjlisovlarning nashrlarida yozma manbalar va arxiv xujjalari taxlil qilinib, XIX-XX asr boshlarida Buxoro amirligi beklilarining yer-suv munosabatlari T.G.Tuktametov, B.I.Iskandarov, A.R.Muhammadjonov, T.Ne'matov, A.M.Aminov, N.A.Xalfin, N.A.Kislyakov, I.K.Xidoyatov, B.X.Karmishyeva, G.Yu.Astanova va boshqa olimlarning asarlarida esa iqtisodiy taraqqiyot darajasi, Rossiya—Buxoro munosabatlari, savdo iqtisodiy aloqlar, xo'jalik turlari, etnik tarkibi, aholining voha xududlari bo'ylab joylashushi va ijtimoiy-siyosiy munosabatlari tarixining turli jihatlari o'z aksini topgan. 1942 yilda M.Ye. Masson va G.A.Pugachenkovalar Shahrisabz va Kitob tarixiy topografiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. 1948 yilda esa O.A.Suxareva Shahrisabzda etnografik tadqiqotlar olib borgan. Qashqadaryo vohasidagi arxeologik

tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan keng ko'lamli o'rjanilib, 1963 yilda ToshDUning Kesh arxeologik topografik ekspedyitsiyasi (KATE) tashkil etiladi. Shu o'rinda M.Ye.Masson, G.A.Pugachenkova, O.A.Suxareva,

#### Tahlil va natija.

V.L.Voronina, M.K.Raximov, Ye.M.Pyeshereva, L.Yu.Mankovskaya, T.Abdullayev, N.I.Krasheninnikova, G.Ya.Dryesvanskaya Z.I.Uzmanova va boshqalarning bu davrga oid tadqiqotlarini aloxida ta'kidlab o'tish joiz.



#### Buxoro amirlari hukmronlik yillarda beklikqilgan kenagasarlar

Mang'it amirlari	Hukmronlik yillardari	Shahrisabz beklari
Amir Haydar	(1800-1826)	Niyozali- Sodiqboy
Amir Husayn	(1826)	Doniyol otaliq
Amir Umarxon	(1826)	Doniyol otaliq
Amir Nasrulloh	(1827-1860)	Doniyol otaliq- Xo'jaquli parvonachi- <a href="#">Ashirgulibiy-</a> Iskandarbiy- Olloyorbek

**Amir Haydar** (1778-1826) mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri. Uning hukmronlik yillarda mamlakatda notinchlik hukm suradi, ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik - xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi va mamlakatda har 3-6 oyda uzlusiz ichki urushlar va qo'zg' olonlar bo'lib turgan. Miyonkol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o'z boshimchalik qila boshlaganlar. Amir Haydar davrida (1800-1826) Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlardan yana keskinlashdi. Shu davrda Shahrisabzda Niyozali hokim bo'lib, garchi Buxoro amirligiga tobe bo'lsada mustaqillik uchun harakatlar qilib turgan. Oqibatda Amir Haydar Shahrisabz bekligining mustaqil siyosat yuritishi bilan murosqa qilishga majbur bo'ladi. Buxoroning mintaqadagi siyosiy ta'sirini kamaytirishga intilib kelgan Qo'qon hukumkorlari ham amirlikdagisi separatistik kuchlar bilan hamkorlik qilishga intilib kelardi. Xususan XIX asr boshlarida Shahrisabz bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi siyosiy aloqalar mustahkamlandi. Shahrisabz hokimi Niyozali Buxoro amirligi bilan bo'lgan urushda yengilgach, Qo'qon xoni Umarxon bilan panoh topgani [2] ham bu munosabatlarning mohiyatidan darak berib turibdi. Shahrisabz-Qo'qon aloqalar Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy raqobatning kuchayishiga olib kelardi.

Niyozali xam olamdan utgach, uning o'rniga o'g'li Sodiqboy Shahrisabz hokimi bo'ladi, Amir Haydar kenagasarlar bilan aloqani mustahkam ushlab turish uchun Sodikboyning qizini nikohiga so'raydi. Lekin bu nikoh uzoq davom etmaydi. Shahvatparast amir Haydar Shahrisabz hokimi Sodikboyning qizini taloq qo'yadi. Bu amirning hayotida bot-bot takrorlanadigan voqeа edi. Bu ish kenagaslarni g'azabga mindirib, xalqning izzat-nafsiga tegadi va ular amirga bo'yusunmaslik yo'lini tutadilar [3].

Keyinchalik, Amir Haydar Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' beklilari nisbatan siyosiy murosqa yo'lini tanladi, mahalliy beklarga odatga, saroy amaldorlariga beriladigan unvonlar tortiq etildi. Masalan Yakkabog' hokimlariga Buxoroning 15 pog'onali oliy amallar ierarxiyasida 7-o'rinda turgan To'qsoba unvoni, Shahrisabz beklariga esa eng oliy Otaliq unvoni berilgan edi[4]. Amir

Haydar hukmronligining dastlabki yillarda Qo'qon xonligi bilan bo'lgan urushda ko'rsatgan yordami uchun Shahrisabz viloyatining mahalliy hokimi Doniyor valloma Niyozali o'g'liga (Doniyol otaliqqa) viloyatni mulk sifatida taqdim etgan[5]. Natijada, Shahrisabz vohasi 1856-yilga qadar yarim mustaqil boshqaruvni o'z qo'lida saqlab qolgan edi. Lekin Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasidagi siyosiy nizolarni butunlay bartaraf etishga Buxoro amirlari siyosiy jihatdan ojiz bo'lib keldilar. 1821-1825-yillarda Miyonqolda bo'lib o'tgan xitoy qipchoqlar qo'zg'aloni vaqtida Shahrisabzliklar qo'zg'alonchilar tarafida bo'lganligi bu siyosiy nizolarni tub ildizlari chuqur ekanligini ko'rsatib berdi.

Nasrulloh otasi Amir Haydar hamda birodarlarli Husayn va Umarxonlar hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. Amir Haydar vafoti (1826 yil 6-oktyabr) dan so'ng hokimiyat uchun kechgan keskin kurashlarda birodarlarli Amir Husayn (1797-1826) va Amir Umarxon (1810-1829) hamda boshqa ukalari ustidan g'olib kelib, 1827 yil aprel oyining boshlarida 21 yoshida Buxoro amirligi taxtiga o'tiradi. Tarixchi olim Mirzo Abdulaziz Somiyying fikricha, Buxoro amirlig taxtini egallashda Nasrulloxonga otasining vaziri bo'lgan Muhammad Hakimbiy qushbegi katta yordam ko'rsatgan[6]. U Buxoroni qamal qilib turgan Nasrulloxon qoshinlariga shaxar darvozasini ohib beradi. Buxoro amirlari ichida o'z shafqatsizligi bilan mashhur bo'lgan, "Qassob Amir nomi bilan tarixda qolgan Amir Nasrullo (1806-1860) o'z hukmronligi davrida (1827-1860) Shahrisabz vohasini qayta tobe etish uchun mutazam hujumlar uyuşshtirib turdi. Bu davrda Shahrisabz yaqinidagi bir nechta qishloqlarda mudofaa qo'rg'onlari barpo etildi va ularga Buxoro sarbozları joylashtirildi. Shahrisabz va Kitobga uyuşshtirilib turiladigan hujumlarda bu qo'rg'onlar tayanch istehkom vazifasini bajargan. Shu sababli ham shahrisabzliklar bu qo'rg'onlarga tez-tez hujum qilib, ularni buzib tashlashiga intilganlar. Amir Nasrulloh Buxoro taxtiga o'tirganining uchinchi yili, ya'ni 1828-yilda Shahrisabzga qarab katta qo'shin tortadi, maqsad Chiroqchi qo'rg'onini Shahrisabzdan ayirib olish lozim bo'lgan.

Bu xabarni eshitib Shahrisabz begi lashkarlarni jam qilib, Chiroqchi shahrida Amir Nasrullohning yo'lini to'sadi.

Doniyl otaliq odam jo'natib ukasi Kitob begi Fozilbekni xam lashkari bilan Chiroqchiga chaqirib olib, uch kun muhoraba qiladi. Natija chiqara olmagach, sulu tuzishib har ikki qo'shin o'z yurtiga qaytib ketadi.

Demak, 1828 yilda Kitobda Doniyolbek otaliqning ukasi Fozilbek bek bo'lgan. 1829-yili katta qo'shin bilan Shahrabsabz ustiga yurish qiladi. Bu gal Donyol otaliq Nasrullaxon qo'shinlarini Kitob chegarasidagi Beshterak mavzesida qarshi oladi. Ularning orasida qattiq jang bo'ladi. Bu manzil Kitob shahridan bir yarim tosh beri deb ko'rsatiladi. Nasrullaxon ko'p jang qilgandan so'ng Pistaxon qal'asini to'pga tutadi. U paytda Donyol otaliq Kitobdan yarim tosh beridagi sayidlar mozori mavzeyini lashkargoh qilib jangni borishini kuzatib turadi, jang qizib turgan bir vaqtida o'sha vaqtida Kitob hokimi bo'lgan Do'st Muhammad Dodho Donyol otaliqdan dilgir bo'lib Amir Nasrulloning oldiga borib mulozamatlik qiladi. Bu fitna qimmatga tushadi. Do'st Muhammad Dodho ko'radiki jang shu zaylda kechsa kenagasar xonadoni oyoq osti bo'lib uning zarari o'ziga ham tegadi. Amir Nasrullo dan kutilgan yaxshilik chiqmasligiga ishonib yana Donyol otaliq huzuriga qaytadi. Beklik kuchlarini qayta birlashganini ko'rib Amir Nasrullo bir qancha qishloqlarni talab otaliqqa sulu taklif qiladi. Otaliq ham sulhga rozi bo'lib yovlashgan ikki qo'shin ikki tomonga qaytadi[7].

Amir Nasrullo 1831-yili yana kuch yig'ib beklik ustiga keladi. Bu gal u bekliliklar tevaragidagi kichik qo'rg'onlarni o'ziga bo'ysindirishni maqul ko'radi. Bu yurishda Amir Nasrullo Duoba, Obikanda qo'rg'onlari va Temirchi mavzesini egallaydi. Vaziyat keskinlashganini hisobga olib Donyol otaliq elchi yuborib sulu tuzish taklifini qo'yadi. Amir Nasrullo sulhga rozi bo'lib yovlashgan ikki qo'shin ikki tomonga qaytadi.

1835-yilda Amir Nasrullo kuchayib Shahrabsabz bekligiga yurish qilish maqsadida Nurota yo'li bilan Samarqandga keladi. Ular tog' yo'li orqali Omonqo'tonning Qizil To'riq mavzeyi orqali Shohak va Toytemirdan tushib Rajongizga qo'nadi. (Rajongiz – Varganza qishlog'i, Shanbe qo'rg'onidan ko'chirilgan buxoroliklar bo'lib, ular Shahrabsabz bekligini tan olmay to'lovlanri Buxoroga to'lagan) Ertasiga bu mavzedan ko'chib Xayrobod qishlog'iga joylashadilar. Xayrobod qishlog'i Kitobning kunchiqar sharqi qismida bo'lib tong otar vaqtida qo'shin orqa qismi bilan quyoshta qarasa jang qilish oson kechishini hisobga olgan. Bu yurishdan ham Amir Nasrullo kerakli natija chiqarolmay Buxoroga qaytadi. 1838-yilda Ingilizlar Afg'onistoniga bostirib kiradi. Afg'oniston amiri Do'st Muhammadxon qochib panox istab yaqinlari bilan Buxoro Amiri Nasrullo huzuriga boradi. Amir Nasrullo Do'st Muhammadxonidan yuz o'giradi. Afg'onistonning sobiq amiri Do'st Muhammadxon odamlari bilan Shahrabsabzga keladi. Doniyol otaliq voqealardan xabardor bo'lsa ham Amir Nasrullo dan cho'chimay Do'st Muhammadxonni qabul qilib, Kitob bekligidan ajratilgan manzilga mehmon qilishadi. Do'st Muhammadxon yurtiga qaytib 1843-yilda yana Afg'oniston taxtiga o'tiradi. Shahrabsabz begi Doniyol otaliq 1840-yilda olamdan o'tadi. U olamdan o'tar vaqtida kenagaslarni yakdil bo'lishga chaqiradi va Bobododxoga Kitobni Xo'jaqulibiy parvonachiga Shahrabsabzni farzandi Iskandarbek nomidan idora qilishni nasixat qiladi. Doniyol otaliq vafot etganda Iskandarbek 12 yoshda qizi Fotima (Kenagashxonim) esa 7 yoshda bo'lgan.

Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab at tavorix" asarida 1840-yip Doniyolbiy Otaliq vafotidan so'ng uning vasiyatiga ko'ra Oq saroy imorati ostida Xo'jaqulibiy parvonachi Shahrabsabz amiri mansabiga o'tqazilgan, Kitobga esa jiyan ukasi Do'st Muhammadning o'g'li Bobobek dodxoh hokim qilib ta'yinlanadilar. Ko'p o'tmasdan aka-ukalar o'rtasida Shahrabsabzda o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kurash boshlanadi. 1846-yilda Shahrabsabzga 6 yil hokimlik

qilgach, Xo'jaqulibiy vafot etadi. Uning vafotidan keyin Shahrabsabzga o'g'li Ashirqulibiy, Kitobga esa Doniyol otaliqning o'g'li Iskandarbey hokim bo'lib qolishadi. Tez orada Iskandarbey Shahrabsabzni Ashirqulibiy qo'sidan tortib oladi. Iskandarbey o'z otasi singari Buxoro amirligiga bo'ysunmaslik siyosatini olib boradi. Uning bu siyosatini separatistik kayfiyatga moyil ayrim hokimlar va saroy amaldorlari qo'llab-quvvatlaydi. Sababi Buxoro amirligining kuchsizlanishi ularning ayni muddaosi edi. Buning ustiga, Shahrabsabz va Kitobdagagi markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik mayllari amirlikning Hisor va Balx viloyatlariga ham tarqalib ulgurgan edi.

Xullas, Shahrabsabz viloyati amirlik hududidagi muxolifat markaziga aylanib, viloyat hokimi Iskandar vallamiyning separatistik kayfiyati Buxoro davlatini birlashtirish va markazlashtirish uchun izchil siyosat yuritayotgan Amir Nasrullohning kenagaslarga qarshi olib borgan siyosati natijasida shu urug'ga mansub bo'lgan aholining bir qismi boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lgan. Iskandar vallamiyning separatistik harakatlarini hatto qo'shni Qo'qon xonligi faol qo'llab-quvvatlab turgan. Qo'qon xonligi hukmdorlari Buxoro amirligi kuchsizlanib, u mustaqil bir nechta mulklarga bo'linib ketishi tarafdori bo'lishgan.

Iskandar vallamiy hokimlik qilgan yillar ham Amir Nasrullohning Shahrabsabz ustiga ko'plab yurishlari davom etishi bilan xarakterlanadi. Amir Nasrulloh 20 yil mobaynida Shahrabsabz ustiga 32 marta harbiy yurish qilib, niroyat, 1856-yili Shahrabsabzni uzil-kesil egallagan. Ba'zi bir manbalarda, Amir Nasrulloh Shahrabsabzni egallahda o'zining piri Shayx Muhammad Husayn Alaviy Buxoriyning ruhi madadiga tayangan deyiladi.

Shahrabsabzga qilingan harbiy yurishlar ichida 1827, 1844, 1856-yillardagi yurishlar alohida ajralib turadi. Bu yurishlar natijasida Shahrabsabz 1856-yili uzil-kesil Buxoroga qayta bo'ysundirilgan. Buxoro amirligini Mang'itlar o'zbek sulolasi rasmiy ravishda boshqarishga kirishgandan so'ng roppa-rosa 100 yil o'tgach, Shahrabsabz vohasi amirlik hujudining ajralmas qismi bo'lib qolgan.

Shahrabsabz markaziy hokimiyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida va Shahrabsabz kenagaslari o'rtasida katta nufuzga ega vallamiyalar bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatib, ushbu qarindoshlik rishtalarini Shahrabsabzni o'z davlatining ajralmas qismi sifatida ushlab turish maqsadida mahalliy hokim Iskandar Vallomaning (valine'matning) Yoqubbiyga turmushta chiqqan singlisi Kenagas oyimga uylangan. Biroq Amir Nasrullohning bu tavakkalchiligi keyinchalik o'ziga qimmatga tushgan. Pirovardida u o'zining yangi qarindoshlari fitmasi natijasida halok bo'lgan.

Amir Nasrulloh endi qaynog'asi bo'lmish Iskandar vallamiyinni butun oilasi a'zolari va yaqinlari bilan birga Buxoroga jo'natgan. Iskandar vallamiynga Buxoro shahrida kattakon hovli va ikki bog' tortiq qilgan hamda uni Qorako'l tumaniga hokim qilib tayinlagan. Yoqubbiyini esa Chorjo'y viloyatiga badarg'a qildirgan.

Amir Nasrulloh Shahrabsabz vohasini qo'lga kiritgandan so'ng Shahrabsabzga Abduholiqbek (keyinchalik Olloyorbek), Kitobga Olloyorbek (keyinchalik Hamidxo'ja va Fayzibiy), Yakkabog'ga Homidxo'ja kabi beklar hokim qilib tayinlanishadi. Bu davrda Buxoro va Shahrabsabz munosabatlari harbiy omillar yetakchi o'r'in tutgani bois, Amir Nasrullohning harbiy islohotlariga qisqacha to'xtalib o'tish zarur.

Amir Nasrulloh o'z hokimiyatini mustahkamlash, yirik o'zbek urug'lari boshliqlarining siyosiy mavqeini pasaytirish uchun Buxoro amirlari orasida birinchi bo'lib piyoda askarlardan iborat sarbozlar va to'pchilardan iborat mutazam qo'shin tuzdi. Qo'shin tuzilgan dastlabki davrda sarbozlar 800

kishini, to'pchilar esa 250 kishidan ortig'roq bo'lган. Ular uchun mahsus kiyim-bosh ham joriy qilindi. Bu masalaning ahamiyatli jihat shundaki, Buxoroning muntazam qo'shini tarkibini Xiva xonligi orqali Buxoroga keltirilgan rus va fors qullari tashkil etgan. Bu ham Amir Nasrullohning yirik o'zbek qabilalari etakchilari orasida siyosiy tayanchi kam bo'lganligidan dalolat beradi. Amir Nasrullohning davlat rahbari sifatidagi saloxiyati, uning axloqi masalasida Axmad Donish xam keskin tanqidiy fikrlar bildirib o'tgani ma'lum[8]. Bu ma'lumotlarga Nasrulloh hukmronligi davrida amirlikka tashrif buyurgan xorijilik sayyohlarning fikrlari hamohangdir. ma'lumki, Amir Nasrulloh hukmronligi yillarda amirlikka ingliz, rus elchilari ko'plab tashrif buyurgan. Ular ichida ingliz zobiti A.Berns, rus josuslari, sayyohlari P.I.Demezon, Vitkevich, N.Xanikov va boshqalar Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, markaziy hukumat va amaldorlar faoliyatni, amirlikning ma'muriy tizimi masalalariga keng to'xtalib o'tganlar[9].

Ularning Amir Nasrullohga hukmdor sifatida bergen baholari ham e'tiborlidir. Xususan, 1835 yilda Buxoroda bo'lgan rus sayyoysi Vitkevich amir Nasrullohning faoliyatiga to'xtalib, uning nomigagina amir yoki podsho ekanligini, asosiy davlat ishlari qo'shibegi Hakimbiyi tomonidan boshqarilishini qayd etadi. Hakimbiyi u uddaburon, birorta ham ishni amirgacha yetkazmasdan o'zi bajaradigan, davlatni boshqarishda nimani xohlasa shuni qiladigan, amirlidagi eng davlatmand, xattoki amirdan ham boy va amir qarshilik qila olmaydigan kishi sifatida ta'riflaydi. Bu fikri butun umrini O'rta Osiyo haqida ma'lumot toplashga bag'ishlagan G.O.Gens ham qo'llab-quvvatlagan holda, buxoroliklar amir va uning boshqaruvidan norozi ekanligi, soliqlar ikki martalab yig'ilayotgani, davlat boshqaruvi haqida bosh qotirish amir Nasrullohning xayoliga ham kemayotganligini 1840 yilning yozida Buxorodan jo'nashi oldidan qayd qilib o'tgan. G.O.Gensning amir haqidagi yuqorida xulosasi bayon qilingan paytdan keyin ham Amir Nasrulloh yana yigirma yil mamlakatni boshqarib, har yili Shahrисабз va Qo'qon ustiga yurishlar yuhshtirib turdi. Lekin Nasrulloh Buxoro taxtiga o'tirgan yili durryoga kelgan mashhur tarixchi va davlat arbobi Ahmad Donishning yozishicha Amir Nasrulloh, vazmin va qo'rmas, qattiqo'l va zukko hukmdor edi. U o'z hukumronligi davrida el va ulusda fitna chitsarishda nom qozongan, markaziy hokimiyatga qarshi turgan qabilalarning turli isyonlarida qatnashgan yoki ilgarigi amirlarga nisbatan ko'rnamatlik qilganlarning barchasini jazoladi va yo'q qildi. O'z tarafdarlariga esa ko'p yaxshiliklar qildi va mehribonlik ko'rsatdi. Uning mulklari kengaygan. Qo'qondan Shahrисабзgacha bo'lган butun mamlakatlar unga bo'ysunga. O'z davrida ayrim mang'it amirlarning kaltabin siyosatini keskin tanqid qilgan mang'itlar sulolasi to'g'risida tarixiy risola yozib, ushbu risolasida Doniyolbiy otaliqdan boshlab to Amir Abdulahatgacha bo'lan 8 ta mang'it amirlar to'g'risida batafsil so'z yuritgan, rost so'z va haqitqatni har qanday sharoitda har qanday shaxsga nisbatan aytal olgan, adolatparvarlik g'oyalari va xolisligi tamoyiliga o'z tarixiy

asarlarida ham qat'iy amal qilgan Ahmad Donishning Amir Nasrullo haqidagi mulohazalari bugungi kitobxonni chiqur o'ya toldiradi, zero, Ahmad Donishning bu so'zlarini ko'pchilik tomonidan "qonxo'r va shafqatsiz" deb balolangan va hanuz baholanayotganlarga yopishtilgan turli sifatlashlar hamda tavqi la'natdan hamon qutulaolmayotgan Amir Nasrullo shaxsiyatini o'rganish va tushunishda o'ziga xos ochqich vazifasini o'taydi.

Muammoga shu jihatdan yondashganda Amir Nasrullohdekk ziddiyatlari va fojiali shaxs xarakterini tushunish va anglashda birmuncha osonlashadi. Amir Nasrullo o'zining 33,5 yillik hukmronligi davrida mang'it amirlari o'rtasida eng ko'p saltanat suragan hukmdor hisoblanadi davlat hokimiyatni mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quy'i tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtiradi[10].

**Xulosa va takliflar.** "O'z tarixini bilmagan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"[11].

Yuqorida fikrlarimizga xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, Shahrisabz bekligi bu davrda (XIX asrning boshidan - XIX asrning 60-yillarigacha) Buxoro amirligi va qo'shni hududlardagi siyosiy voqealar ta'siridan chetda qolmadi va ko'p hollarda ichki siyosiy nizolarga faol aralashib turdi. Mang'it amirlari davrida, ayniqsa, amir Nasrulloh hokimiyat tepasiga kelgach, o'z qo'l ostidagi viloyatlarni shafqatsiz ravishda talash, urug'lar o'rtasidagi nizolarni atayin keskinlashtirish, yurt olish siyosatini yurgizadi. Voqealarning bu tarzdagi rivoji, albatqa, vohaning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga sezilarli darajada salibiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, Shahrisabz bekligi XVII asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligining muhim tarkibiy qismi sifatida davlatning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki iqtisodiy hayoti rivojida ham muhim o'r'in tutgan.

XIX asrda Shahrisabz bekligi va Buxoro amirligi o'rtasida juda ko'plab urushlar bo'lib otganligi ko'rib chiqdik lekin bu urushlar natijasiz tugab Shahrisabz bekligi o'zining mustaqilligini saqlab qolgan. Buxoro amirlari har safar yurish qilganda beklilik atrofidagi qishloqlarni talar va vayron qilar edi, lekin ular beklilik markaziga kirolgan emas.

Umuman olganda, markaziy hokimiyat va Shahrисабз bekligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tahlili shundan dalolat beradi, XIX asrda soliqlar miqdorining oshib ketishi, Buxoro amirlarining voha axolisiga nisbatan zo'ravonlik siyosati, mahalliy bekliliklarga amir qarindoshlari va taxt vorislарini noib etib tayinlash an'anasi aholining jiddiy noroziligi va g'aylonlariga sabab bo'lgan.

Turli yillarda Shahrисабз beklari amirga soliqlar to'lashdan bosh tortib, mahalliy yo'boshchilarga tayangan xolda amirdan mustaqil bo'lishga intilib kelganlar. Shu sababdan davlat mansabida turgan ayrim Buxoro tarixchilarining asarlarida Shahrisabz kenagaslari "isyonchilar" sifatida ta'riflanib, tanqidga uchragan. Bunday yondashuv xolis emas va mazkur asarlarda turli davrlarda vujudga kelgan norozilik sabablari yetarli darajada yoritilmagan.

## ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 22 декабрь куни Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. // Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
2. Ахмедов Б.А. Узбекистон тарихи манбаларда. - Ташкент, 2001. - Б. 118
3. Бердиеев А. Ҳақиқатга Садқа Бош. Ташкент. 2005 Б. 29.
4. Бейсембиев Т.К. Малые владения в Мавараннаре: Нур-ата, Ургут, Яккабаг (XIII-XIX вв.) Н Иран-намэ, Научный востоковедческий журнал. - Алматы, 2007. - N2 1-2. - С. 143-144.
5. Кун А. Очерки Шагрисебзского бекства. - С. 35.
6. Rajabov Q. K. Amir Nasrullo Bahodurxon yoxud «xoni shahid». Buxoro: Buxoro mavjulari. Toshkent: Abu matbuot-konsalt, 2011. B.26-29
7. Мухаммадхакимхон тура. Мунтахаб ат-таворих / Форс-тожик тилидан тарж., муқаддима, изохлар ва курсатчилар мувалифи Ш.Воҳидов. — Ташкент: Янги аср авлоди, 2010. - Б. 329

8. Ахмад Дониш. История мангитской династии / Пер. предис. прим. И.А.Наджаповой. - Душанбе: Дониш, 1967. -с. 27.
9. Холикулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари. фан.номзоди., дисс. автореф. - Ташкент: УзМУ, 2011. -27 б.;
10. Мирза Абдал-азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангытских государей) Изд. текста, предисл. и примеч. Л.М.Епифановой. - М.: Изд-во вост. лит., 1962. - 179 с